

**"PROFILAKTIKA INSPEKTORLARINING KRIMINOGEN VAZIYATI
OG'IR HUDUDLARDA PATRUL YO'NALISHLARINI TASHKIL ETISH
FAOLIYATI"**

Boboqulova Dilnoza Soyib qizi

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

3-o'quv kursi kursanti safdar

Annotatsiya. Maqolada profilaktika inspektorlarining kriminogen vaziyati og'ir bo'lgan hududlarda jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan patrul yo'nalishlarini tashkil etish faoliyati keng yoritilgan. Xususan, jinoyat holatining monitoringi, xavfli nuqtalarni aniqlash, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, aholi bilan ijtimoiy hamkorlik asosida olib borilayotgan ishlar tahlil qilinadi. Mazkur yondashuvlar orqali hududda xavfsizlikni ta'minlash va huquqbuzarliklarni kamaytirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: profilaktika inspektori, jinoyatlarni oldini olish, kriminogen holat, patrul yo'nalishi, xavfsizlik, huquqbuzarlik, ijtimoiy hamkorlik, jamoat tartibi.

Mamlakatimizda jinoyatchilikka qarshi kurash, jamoat tartibini saqlash va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlashda ichki ishlar organlarining, ayniqsa, profilaktika inspektorlarining roli muhim hisoblanadi. Ayniqsa, kriminogen holati og'ir, jinoyatchilik yuqori bo'lgan mahallalarda ushbu faoliyatning samaradorligi ikki karra muhim. Bunday hududlarda profilaktika inspektorlari nafaqat huquqbuzarlik holatlariga javob beruvchi mutaxassis, balki ijtimoiy muvozanatni tiklovchi va jamiyat bilan doimiy aloqada bo'ladigan shaxs sifatida harakat qilmoqda. Patrul yo'nalishlarini to'g'ri tashkil etish jinoyatning sodir bo'lishining oldini olish, fuqarolarda huquqiy ong va javobgarlikni shakllantirishda muhim mexanizmdir. Shu bois bu faoliyatni ilmiy asoslangan holda takomillashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Kriminogen vaziyatni baholash — bu hududda jinoyatchilik holatini tahlil qilish, jinoyatlarning joylashuvi, vaqt, takroriyligi va ularni sodir etgan shaxslarning ijtimoiy portretini o'rganishni o'z ichiga oladi. Mazkur jarayon profilaktika inspektorining hududdagi real xavfsizlik darajasini aniqlashi va zarur choralarini

rejalashtirishiga imkon beradi. Bunda jinoyatlarning statistik ko'rsatkichlari, jinoiy hodisalarning takrorlanish darajasi, ularning joylashgan manzillari, vaqt oralig'i, jinoyat turlarining spektri alohida e'tibor bilan tahlil qilinadi.

Xavfli hududlar sifatida odatda kechki va tungi vaqtarda jinoyatlar sodir bo'ladigan, jamoat joylari (parklar, ko'ngilochar markazlar, ko'chalar, avtoturargohlar) va ijtimoiy ziddiyatlar mavjud bo'lgan mahallalar qayd etiladi. Aholi zichligi yuqori, ishsizlik darajasi ortiqcha bo'lgan yoki ichki migratsiya kuchli kechayotgan hududlar ham xavf omili sifatida ko'rildi. Bu omillarni chuqur tahlil qilish patrul yo'nalişlarini to'g'ri shakllantirish, kuch vositalarini samarali taqsimlash va jinoyatchilikni jilovlash imkonini beradi.

Patrul faoliyatining samaradorligi ko'p jihatdan fuqarolar bilan hamkorlikka bog'liq. Bu quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

- Mahalla raislari, faollar, xotin-qizlar qo'mitasi bilan muntazam uchrashuvlar;
- Huquqbazarlik sodir etgan shaxslar va ularning oilasi bilan ishslash;
- Yoshlar orasida jinoyatchilikni kamaytirish bo'yicha sport, madaniy tadbirlar tashkil etish;
- Mahalla hududida "ishonch telefonlari" va "fuqaro patrullari" tizimini joriy etish.

Shuningdek, har bir inspektor xizmat yuritayotgan mahallaning "ijtimoiy pasporti"ni yuritadi – bu hujjatda muammoli oilalar, jinoyatchilik darajasi, yoshlar faoliyati haqida ma'lumotlar jamlanadi.

Jinoyatlarning oldini olishda ijtimoiy hamkorlik va jamoatchilik nazorati muhim o'rin tutadi. Yagona davlat tizimi doirasida huquqni muhofaza qiluvchi organlarning samarali faoliyati fuqarolar bilan o'zaro ishonch asosida yo'lga qo'yilgan hamkoriksiz to'liq natija bera olmaydi. Shuning uchun profilaktika inspektorlari o'z xizmat hududida faoliyat olib borayotgan mahalla fuqarolari yig'ini raislari, faollar, xotin-qizlar qo'mitasi, yoshlar yetakchilari bilan uzviy aloqada ishlashi lozim.

Ijtimoiy hamkorlik doirasida profilaktik suhabatlar o'tkazish, jinoyat sodir etgan shaxslar va ularning oila a'zolari bilan ishslash, muammoli oilalarni aniqlab, ularning ijtimoiy-psixologik holatini baholash kabi chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Bu bilan huquqbazarlikning ildizi aniqlanib, jinoyatning oldi olinadi.

Jamoatchilik posbonlari, “mahalla patruli”, “inson xavfsizligi guruhlari” kabi tashkiliy shakllar orqali aholi o‘zi ham jamoat tartibini saqlashda bevosita ishtirok etadi. Bu orqali nafaqat jinoyatlar soni kamayadi, balki jamiyatda fuqarolik javobgarligi, ijtimoiy birdamlik va huquqiy ong kuchayadi.

Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish patrul yo‘nalishlari faoliyatini yanada samarali, tezkor va nazorat ostidagi holatga keltirish imkonini beradi. Bugungi kunda jinoyatlarning oldini olishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish nafaqat qulaylik, balki zarurat darajasiga chiqdi.

Videokuzatuv tizimlari — bu eng keng tarqalgan va ishonchli vosita bo‘lib, jamoat joylarida jinoyatlarning sodir etilishini kuzatib borish, huquqbuzarlik sodir etilgan vaziyatda tezkor javob choralarini ko‘rish imkonini beradi. Bunday kameralar yordamida doimiy ravishda xavfli zonalar monitoring qilinadi va ular markaziy tizimga ulangan bo‘ladi. GPS moslamalari orqali patrul xodimlarining harakati kuzatiladi, ular belgilangan yo‘nalish bo‘yicha harakatlanayotganini nazorat qilish mumkin. Dronlar yordamida katta maydonlar (masalan, bozorlarda, tadbirlar paytida, ochiq hududlarda) real vaqt rejimida nazorat qilinadi. Mobil ilovalar va axborot tizimlari orqali inspektorlar joyida turib, huquqbuzar shaxslar haqida markaziy ma’lumotlar bazasidan tekshiruv o‘tkazish, xabarnomalar yuborish yoki tez yordam, PPX chaqirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bunday tashqari, sun’iy intellekt yordamida jinoyatlarning takrorlanish ehtimolini aniqlovchi prognoz tahlil dasturlaridan foydalanish tajribalari ham bosqichma-bosqich joriy etilmoqda.

Xulosa

Kriminogen vaziyat og‘ir bo‘lgan hududlarda profilaktika inspektorlarining samarali faoliyati jamiyatdagi xavfsizlikni ta’minlash va jinoyatlarning oldini olishda muhim omil hisoblanadi. Bunda, avvalo, jinoyatchilik tahlilini chuqur olib borish, xavfli hududlarni aniqlash va statistik ko‘rsatkichlar asosida yo‘naltirilgan choralarini ishlab chiqish lozim. Patrul yo‘nalishlarini aniq rejalashtirish va kuch vositalarini ratsional taqsimlash orqali huquqbuzarliklarga tezkor va samarali javob berish imkoniyati yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining "Huquqbazarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonuni. — Toshkent: Adolat, 2018.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-martdagи "Jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-187-son qarori.
3. Tursunov A.N. *Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbazarliklar profilaktikasi: nazariya va amaliyot*. — Toshkent: Akademiya, 2021.
4. Rahimov B.I. *Kriminogen vaziyat va uni tahlil qilish metodikasi*. — Toshkent: Yuridik adabiyotlar, 2020.
5. Abdug'afforov D.N. *Ichki ishlar organlarining patrul-post xizmatlari faoliyati va uni tashkil etish uslublari*. — Toshkent: IIV Akademiyasi, 2019.
6. Zokirov Sh.R. *Jamoatchilik nazorati va ijtimoiy hamkorlik asoslari*. — Toshkent: Ijtimoiy fanlar nashriyoti, 2021.